

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA‘LIM MARKAZI**

**2018-2019 O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM
MAKTABLARINING 7-SINF O‘QUCHILARI UCHUN ONA TILI VA
ADABIYOT, O‘ZBEK TILI (RUS TILI), RUS ADABIYOTI, FIZIKA,
INFORMATIKA FANLARIDAN BOSQICHLI IMTIHON
MATERIALLARI VA METODIK TAVSIYALAR**



TOSHKENT-2019

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Maktab metod birlashmalari imtihon biletlariga 15-20% hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin

ONA TILI VA ADABIYOT

Tuzuvchi:

G'.Hamroyev – Respublika ta'lim markazi Filologiya fanlar bo'limi boshlig'i.

O.Musurmonqulova – Respublika ta'lim markazi Filologiya fanlar bo'limi metodisti.

Taqrizchi:

D.Hoshimova – Piskent tumani 7-umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

N.Xo'jamberdieva – Toshkent shahar Shayxontahur tumanidagi 34-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

O'ZBEK TILI

Tuzuvchi:

F.Tolipova - Respublika ta'lim markazi o'zbek tili fani metodisti.

Taqrizchi:

F.Aydarova -Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'zbek tili fani o'qituvchisi.

RUS TILI

Составитель:

Гафурова Г.Э - Методист отдела иностранных языков по русскому языку **Рецензенты:**

Бабаева Д.А - Учитель школы №314 Шайхантахурского района г.Ташкента

Искандарова М.У - Учитель школы №52 Уртачирчикского района Ташкентской области –

RUS ADABIYOTI

Давлятов А.Ф. – методист русского языка и литературы Республиканского центра образования

Ковалева Н.С. – учитель русского языка и литературы школы № 5 Юнусабадского района г. Ташкент

Мирахмедова Д.Т. – преподаватель русского языка и литературы УзГУМЯ

FIZIKA

Tuzuvchilar:

Z. Sangirova RTM “Aniq va tabiiy fanlar” bo'limi fizika fani metodisti

U. Alimuhamedova Yunusobod tumani 9-maktab fizika fani o'qituvchisi

Taqrizchi:

N. Buranova Chilonzor tumani 178-IDUM fizika fani o'qituvchisi

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Tuzuvchilar:

Sh.Ishmurodov - Respublika ta'lim markazining Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni metodik ta'minlash bo'limi boshlig'i

M.Xudoyberdiyeva - Toshkent shahar Yashnobod tumani 216-sonli maktabning Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

Taqrizchi:

F.Alimxanova - Toshkent shahar Uchtepa tumani 193-sonli maktabning Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi

ONA TILI

7 - sinf uchun bosqichli imtihon bo'yicha tavsiya

Ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan bo'lgan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadida 7-sinfda ona tilidan bosqichli imtihon yozma ish, ya'ni diktant shaklida o'tkaziladi.

Diktant o'quvchilarning savodxonligini tekshirish bilan birga til qurilishi bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, bu bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmasi va yozma nutq hosil qilish malakasini tarkib toptirishga qaratiladi.

Tanlangan diktant matni quyidagi talablarga mos bo'lish lozim:

o'quvchilarning o'quv yili davomida o'rganilgan mavzular yuzasidan bilim va malakalarni mustahkamlashga hamda savodxonligini tekshirishga xizmat qilishi;

Diktant matning hajmi 120-150 tagacha so'zdan iborat bo'lib, o'tilgan mavzularga to'la muvofiq keladigan va olingan bilimlarni sinash imkoniyatini beradigan material tanlanishi;

tanlangan matn o'quvchiga ma'lum darslikdan olinmay, imkon qadar ijodiy bo'lishi, mustaqil o'qilgan yoki o'quvchiga notanish bo'lgan asarlardan olinib, ta'limiy, tarbiyaviy mohiyatga ega bo'lishi lozim.

Diktant o'qib eshiritish orqali yozdiriladi. Diktant yozilgandan so'ng matn qayta ifodali o'qub beriladi.

Diktant quyidagi baholash mezonni asosida baholanadi

MEZONLAR	BALL
Husnixat bilan yozilgan, 1ta imlo 2 ta ishoraviy xatosi bo'lgan diktantga qo'yiladi. (bu 1/2 shaklida belgilanadi)	5 ball
Xatolar soni turlicha bo'lishi mumkin: 2 ta imlo+2 ta ishoraviy xato; 1 ta imlo+3 ta ishoraviy xato; 0 imlo + 4 ta ishoraviy xato. (Bu: 2\2 ; 1\3; 0\4) Xatolar nisbati o'zgarishi mumkin, lekin ularning umumiy miqdori 5 tadan, imlo xatolar soni 2 tadan oshmasligi kerak.	4 ball
4 imlo + 4 ta ishoraviy xato; 3 ta imlo + 5 ta ishoraviy xato; 0 imlo + 7 ta ishoraviy xato; 4 ta imlo + 6 ta ishoraviy xato. (Bu: 4\4; 3\5; 0\7; 4\6) Ammo imlo xatolar soni 4 tadan oshmasligi kerak.	3 ball
7 ta imlo+7 ta ishoraviy xato; 6 ta imlo+8 ta ishoraviy xato; 5 ta imlo +9 ta ishoraviy xato; 8 ta imlo +6 ta ishoraviy xato. (Bu: 7\7; 6\ 5\9; 8\6) Har qanday 7 tadan ortiq imlo xatoga qo'yiladi	2 ball

Izoh:

1. Belgilangan mezonlardan ortiqcha xatoliklar bo'lsa «1» qo'yiladi.
2. Diktantga baho qo'yishda belgilangan mezonda chegara bo'lishi kerak.
Masalan: «4» baho uchun imlo xatolar soni 2 tadan, «3» baho uchun imlo xatolar soni 4 tadan oshmasligi va «2» baho uchun imlo xatolar soni 7 tadan ortiq bo'lishi kerak.
3. Diktant matnidagi tuzatishlar soni 3 ta yoki undan ortiq bo'lgan diktantga "besh baho" qo'yilmaydi;
4. Tuzatishlarning soni 5 ta yoki undan ko'p bo'lsa diktant bahosi o'z-o'zidan bir balga pasaytirilib qo'yiladi. Bunday holatda masalan: "4" baho "3" bahoga tushiriladi.

Agar ishoraiy xatoliklar umuman bo'lmay, faqat 4 -5 ta imloda xato bo'lsa "3" baho qo'yiladi.

Diktan uchun matnlar:

Yurtimning tarixiy obidalari

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy, madaniy merosga e'tibor kuchaydi, tarixiy yodgorliklar davlat nazorati ostiga olindi. Istiqlol yillarida Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Toshkent, Qo'qon, Shahrisabz kabi shaharlarda ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar o'zining haqiqiy qadr-qimmatini topdi, ularni ta'mirlash va asl qiyofasini tiklash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Toptalgan tariximiz, qutlug' qadamjolar, hatto nomlari ham unutilayozgan obidalar ta'mirlandi, qayta tiklandi. Imom al Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Ahmad al-Farg'oniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy kabi ulug' allomalarimizning sha'nlariga munosib yodgorlik majmualar yaratildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Sohibqiron Amir Temur, Toshkentda Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Termizda Alpomish haykallari qad ko'tardi.

(102 ta so'z)

Kitob o'qishning hikmati

Ko'plab kitob o'qish, o'qiganda ham tushunib o'qishda hikmat katta. Kitob o'qishning foydasi haqida ulug' alloma Abu ali ibn Sinoning hayotidan olingan ushbu lavha diqqatga sazovor.

Aytishlaricha, Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning saroyida juda boy kutubxonasi bo'lgan, ammo unga kirish uchun hammaga ham ruxsat etilmagan. Bir tasodif tufayli Ibn Sino o'sha kutubxonaga kirish va kutubxonadan foydalanish huquqiga ega bo'ladi

Kunlardan bir kuni amir kasal bo'lib qoladi. Saroy tabiblari uni davolay olmaydilar. Shunda Buxoro tabiblari orasida endigina nom chiqarib kelayotgan ibn Sino haqida gapirib qolishadi. Amir uni saroyga chaqirishlarini buyuradi. Ibn Sino amirni davolaydi. Bundan xursand bo'lgan amir uni Saroy tabiblariga boshliq qilib tayinlaydi va «Tila tilagingni!» deydi. Ibn Sino amirdan kutubxonadan foydalanishga ruxsat berishini so'raydi. Amir ruxsat beradi. Shunday qilib, mashhur olim amir kutubxonasidan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

(M.Qoriyev)

Mardlar qo'riqlaydi vatanni

Barchamizga ma'lumki, Vatanni himoya qilishdek eng ulug' va olijanob, sharaflilik ish bo'lmasa kerak. Vatan himoyachilari kuni nafaqat harbiy xizmatchilar, balki ayni vaqtda armiya saflarida o'z burchini o'tab qaytgan vatandoshlarimiz va ertaga xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayrami, deb qabul qilingan. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda milliy armiyamiz ming-

minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylangani, hech shubhasiz, shu yo'lda erishgan eng katta yutug'imizdir. Bu haqiqatni yurtimizdagi barcha ota-onalar, butun xalqimiz g'urur bilan, minnatdorchilik bilan e'tirof etmoqda.

Siz-u bizga tarixdan ma'lumki, Vatan ozodligi yo'lida qanchadan qancha insonlar jonlarini fido qilishgan. Bobolarimiz Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabi qancha vatandoshlarimizni namuna sifatida keltirish mumkin.

O'ZBEK TILI

7-sinf

Ozbek tili fanidan 7-sinfda o'quvchilarning DTSda belgilangan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning elementlari qay darajada shakllanganligini aniqlash maqsadida ta'lim boshqa tillarda (rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman va qoraqalpoq) olib boriladigan maktablar uchun bosqichli nazorat imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi. O'zbek tili fani o'quvchilarning ko'pchilik ovozi bilan bosqichli nazorat o'tkazilishidan bir oy oldin tanlanadi. Imtihon materiallarini tuzishda 7-sinf darsligida berilgan mavzular qamrab olindi. Bunda 1-savol bo'yicha o'quvchi belgilangan matnni o'qiydi, mavzu doirasida mustaqil fikrini bayon etib, mazmunini tushuntirib beradi, she'rning mazmunini izohlab beradi, hamda o'qituvchi tomonidan berilgan qo'shimcha savollarga javob beradi. O'qituvchi o'qilgan matn yuzasidan yoki o'quvchilarning kundalik hayotida zarur bo'lgan so'zlashuv mavzulariga oid qo'shimcha savollarni berishi mumkin. Shunga ko'ra, 7-sinf bitiruvchilari DTS bo'yicha nutqiy mavzular mazmunini ifodalovchi tayanch va faol so'zlarni o'zlashtirishi; darslikda berilgan matnlar, mavzuga aloqador qo'shimcha adabiy-badiiy matnlarni o'qib hikoya qilish; o'z fikrini bog'lanishli bayon qilish; o'zaro fikr almasha olish; voqea-hodisalarga, asar qahramonlariga munosabat bildirish; o'zbek milliy-madaniy qadriyatlarini o'rganish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish, barcha sohalarda erkin mantiqiy fikrlagan holda fikr almasha olish kabi malakalarni egallagan bo'lishlari talab etiladi. 2-savol yil davomida o'rganilgan grammatik mavzular doirasida tuzilgan. Masalan, gapning tuzilishi, bo'gin ko'chirish, ega-kesim munosabatlari, so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalar, fe'llarning yasalishi kabi mavzularga oid o'quvchining mantiqiy fikrlashi va yozma savodxonligini aniqlashga qaratilgan grammatik topshiriqlar berilgan. O'quvchilarga topshiriqlar bo'yicha tayyorlanish uchun 15-20 daqiqa vaqt beriladi.

Oquvchilarning imtihondagi javoblari quyidagi me'yorlar asosida baholanadi:

Baholash mezonlari

Ballar	Baholash ko'rsatkichlari
5 ball	Mavzu bo'yicha berilgan faol so'zlarni to'liq o'zlashtirsa, matnni to'g'ri o'qisa, mazmunini har ikki tilda tushuntira olsa, mavzu asosida o'z fikrini og'zaki bayon qilsa, yoki she'riy asarni o'qib mazmunini izohlay olsa, grammatik topshiriqni to'g'ri bajarsa, mavzu doirasida o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga to'g'ri javob bersa.
4 ball	Mavzu bo'yicha berilgan tayanch so'zlarni o'zlashtirsa, matnni o'qisa, mazmunini har ikki tilda tushuntira olsa, mavzu asosida fikrini og'zaki bayon qilsa, yoki she'riy asarni

	o‘qib izohlay olsa, grammatik topshiriqni qisman to‘g‘ri bajarsa, mavzu doirasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisman javob bersa.
3 ball	Mavzu bo‘yicha berilgan tayanch so‘zlarni o‘zlashtira olsa, matni qisman to‘g‘ri o‘qisa, mazmunini har ikki tilda qisman tushuntira olsa, fikrini qisman og‘zaki bayon qilsa, yoki she‘riy asarni qisman o‘qisa, grammatik topshiriqni xato bajarsa, mavzu doirasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisman to‘g‘ri javob bersa.
2 ball	Mavzu bo‘yicha berilgan tayanch so‘zlarni qisman o‘zlashtirgan bo‘lsa, matni to‘liq o‘qiy olmasa, mazmunini har ikki tilda qisman tushuntira olsa, fikrini qisman bayon qilsa, grammatik topshiriqni noto‘g‘ri bajarsa, she‘riy asarni qisman o‘qish bilan chegaralansa, mavzu doirasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisman javob bersa.
1 ball	Mavzu bo‘yicha berilgan tayanch so‘zlarni past darajada bilsa, matni o‘qiy olmasa, mazmunini har ikki tilda qisman tushuntira olsa, fikrini to‘liq og‘zaki bayon qila olmasa, grammatik topshiriqni bajara olmasa, she‘riy asarni o‘qiy olmasa, mavzu doirasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga to‘g‘ri javob bera olmasa.

Izoh: agarda o‘quvchi mutlaqo javob bera olmasa «0» (nol) ball qo‘yiladi.

1 - bilet

1. “Bahs” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Nuqtalar o‘rniga *ham, faqat* yuklamalaridan mosini qo‘yib yozing.
Men bobom singari geolog bo‘lmoqchiman.

2 - bilet

1. “Hikmatli savol-javoblar” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar: *kam ye, kam de Izzat tilasang, , sihat tilasang,*

3 - bilet

1. “Futbolchilar musobaqasi” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Nuqtalar o‘rniga *kular, kulsa* so‘zlarini to‘g‘ri qo‘yib hikmatni yozing va mazmunini tushuntiring. *Ona, olam* .

4 - bilet

1. “Non aziz ne‘mat” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Berilgan so‘zlardan gap tuzing va yozing: *olam, bo‘lsang, seniki, olim.*

5 - bilet

1. “Go‘zallik, salomatlik va sport” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zdagi kelishik qo‘shimchasini mazmunga moslab, *orqali, uchun, ilgari* so‘zlari bilan almashtirib yozing.
U murabbiyi bilan telefonda gaplashdi.

6 - bilet

1. “Sport ” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Nuqtalar o‘rniga mazmunga mos so‘zlarni qo‘yib yozing.

Foydalanish uchun soʻzlar: *zarar topasan, foyda koʻrsang*
Yolgʻon aytib , oxirida

7 - bilet

1. “Orol” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Berilgan feʼllardan *-(i)b* qoʻshimchali ravishdoshlar hosil qiling: *kulmoq, ishlamoq, bajarmoq, soʻzlamok.*

8 - bilet

1. “Soy suvi haqida rivoyat” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Berilgan feʼllarni *kerak* soʻzi bilan bogʻlab gaplar tuzing: *gʻolib chiqmoq, ishtirok etmoq*

9 - bilet

1. “Oʻzbekistonning yerusti suvlari” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Quyidagi gapni davom ettirib yozing.
Suv nafaqat hayot manbai, balki

10 - bilet

1. “Suv bebaho xazina” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. *Tayyorlamoq, javob bermoq, ishlamoq* feʼllarini boʻlishsiz shaklga aylantirib yozing.

11 - bilet

1. “Temuriylar tarixi davlat muzeyi” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Nuqtalar oʻrniga mos soʻzlarni qoʻyib yozing.

Foydalanish uchun soʻzlar: *koʻrgan edilar, xabardor edi.*

Chet ellik mehmon urf-odatlarimizdan

12 - bilet

1. “Suv – hayot manbai” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Maqolni davom ettiring. Nuqtalar oʻrniga mazmuniga mos soʻzlarni qoʻyib yozing.

Foydalanish uchun soʻzlar: *yerda hayot bor, quduqqa tupurma*

Oʻzing suv ichadigan

13 - bilet

1. “Salomlashish – odob belgisi” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Nuqtalar oʻrniga sabab ravishini qoʻyib yozing: *lekin,*

chorasizlikdan , va

U aytilgan taklifga koʻnishga majbur boʻldi.

14 - bilet

1. “Odob-axloq qoidalari” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Maqolni davom ettiring. Nuqtalar oʻrniga mazmuniga mos soʻzlarni qoʻyib yozing.

Foydalanish uchun soʻzlar: *sharafliroq yoʻq ondin, koʻnglingni bir tut Tiling birla*

15 - bilet

1. “Onaizor” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Quyidagi soʻzlarga yordamchi feʼllardan mosini qoʻyib yozing.
Yordamchi feʼllar: *qurmoq, bermoq, olmoq*
dam, savol, suhbat

16 - bilet

1. “Ona – xonadon chirogʻi” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Nuqtalar oʻrniga *ammo, biroq, lekin* zidlov bogʻlovchilaridan mosini qoʻyib yozing.
Zargar yosh, isteʼdodli yigit edi.

17 - bilet

1. “Buyuk tarixchi bilan uchrashuv” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Nuqtalar oʻrnini mazmunga mos toʻldirib yozing.
Foydalanish uchun soʻzlar: *xarj qilgʻil ani, ilmning mahzani*
Yigitlikda yigʻ , qarilik chogʻi

18 - bilet

1. “Buyuk mutafakkir” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Nuqtalar oʻrniga *-oq, -yoq, -ku* yuklamalaridan mosini qoʻyib yozing.
Axir maktabda oʻqiydi -..., kichkina boʻladimi?

19 - bilet

1. “Chegaradan maktub” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Avval juft ravishlarni, soʻngra takroriy ravishlarni ajratib yozing.
Asta-sekin, qayta-qayta, bugun-erta, asta-asta, eson-omon, tez-tez.

20 - bilet

1. “Farzand boʻlay munosib” sheʼrini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Berilgan soʻzlarga tutuq belgisini toʻgʻri qoʻyib yozing: *alo, tatil, elon, sher, tasir, marifat, istemol*

21 - bilet

1. “Hunarmandlar rastasi” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Xato berilgan soʻzlarni tuzatib yozing: *poez, taraqiyot, bita, ikita, sakiz*

22 - bilet

1. “Oqsaroy” matnini oʻqing va mazmunini soʻzlab bering.
2. Berilgan soʻzlarning ichidan ijobiy fazilatlarini ajratib yozing:
toʻgʻrisoʻzlik, xasis, mehribon, tirishqoq, yolgʻonchi, maqtanchoq, mehnatsevar, dangasa, kamtar

23 - bilet

1. “Yaxshi xulq – yaxshi husn” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Juft otlarni ajratib yozing: *kamgap, ona -bola, rostgo‘y, alg‘ov -dalg‘ov, shirinso‘z, katta -kichik, kecha -kunduz, mehnatsevar*

24 - bilet

1. “Gul ko‘targan qizaloq” she‘rini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Qavs ichida berilgan fe‘lni 2 shaxs buyruq-istak maylida yozing.
Do‘stlaringga, yaqinlaringa hamisha e‘tiborli (bo‘lmoq).

25 - bilet

- 1 “Shiroq” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Berilgan otlarga *-la, -lan, -lash* qo‘shimchalarini qo‘shib fe‘llar yasang:
gul, shod, tez, kuy, bahs.

26 - bilet

1. “Ona mehri” she‘rini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Berilgan fe‘llarga *-(i)b* qo‘shimchalarini qo‘shib ravishdoshlarni hosil qiling: *ishlamoq, kulmoq, so‘zlamoq, qidirmoq.*

27 - bilet

1. “Insoniy fazilatlar” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Berilgan sifatdoshlarni bo‘lishsiz shaklda yozing: *bilgan, kelgan, yozgan, o‘tilgan.*

28 - bilet

1. “Loqaydlik va isrofgarchilik” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Nuqtalar o‘rniga *x, h* harflarini to‘g‘ri qo‘yib yozing: *de..qon, ni...oyat, ya...shi, fa..r, ba..s, ...ayot, ...ushbo,, y, ...ovli, ma...lla, sha...ar.*

29 - bilet

1. “Shahrimiz obod bo‘lsin” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Nuqtalar o‘rniga *-gan, -kan, -qan* qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib yozing.
Kutubxonamizga yangi chiq... badiiy asarlar keltirildi.

30 - bilet

1. “Buvijonim” she‘rini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.
2. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, Alisher Navoiyning hikmatini yozing : *o‘ziga zolim, o‘rgangan olim*
Bilmaganin so‘rab,
Orlanib so‘ramagan

7 класс
РУССКИЙ ЯЗЫК

Экзамен этапного контроля по русскому языку в 7 классе школ с узбекским и другими языками обучения проводится в устной форме.

Билеты для 7 класса состоят из двух заданий. Первое задание проверяет навыки сознательного беглого чтения и пересказа отрывков прозаических произведений и выразительного чтения стихотворений, умения отвечать на вопросы по тексту прочитанных произведений. Второе задание умение применять полученные знания по грамматике при составлении высказываний по заданным темам и ситуациям.

Критерии оценки устных ответов учащихся

Выставляется: «5»– если объем высказывания учащегося соответствует требованиям программы, высказывание полностью соответствует теме (допускается не более 1-2 речевых ошибок).

«4» – если высказывание соответствует теме, при этом допущено более 3-5 речевых ошибок.

«3» – если объем высказывания недостаточно полный, но соответствует теме, допущено не более 6-9 речевых ошибок.

«2» – если объем высказывания неполный, высказывание не соответствует теме, допущено 10 и более речевых ошибок.

«1» – если учащийся не сумел ответить ни на одно задание, не составил ни одной фразы.

Примечание: Под речевой ошибкой, понимается ошибка, общая для устной и письменной речи, которая ясно воспринимается на слух («светлый комната», «пёт воду», «читать книга» и т.д.). В количество подсчитываемых ошибок включаются лексические и грамматические.

Билет № 1

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа К.Г.Паустовского «Барсучий нос».
2. Расскажите о животных, занесённых в «Красную книгу».

Билет № 2

1. Прочитайте и перескажите отрывок из «Повести о настоящем человеке» Б.Н. Полевого (о схватке с фашистским асом).
2. Расскажите об удивительном случае, который произошёл с вами.

Билет № 3

1. Прочитайте наизусть отрывок из поэмы Н.А.Некрасова «Мороз-Красный нос».
2. Расскажите о покупках в магазине «Канцтовары». Сколько стоит каждый предмет?

Билет № 4

1. Прочитайте наизусть стихотворение А.Т.Твардовского «Рассказ танкиста».

2. Что вы знаете об Олимпийских играх? Расскажите о них.

Билет № 5

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа Л.Н.Толстого «Акула».
2. Расскажите об известных спортсменах Узбекистана.

Билет № 6

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа А.П.Чехова «Мальчики».
2. Расскажите о вашей семье. Когда родились ваши родственники?

Билет № 7

1. Прочитайте наизусть стихотворение Р. Фархади «Узбекистан».
2. Какие полезные ископаемые есть в Узбекистане? Расскажите о них.

Билет № 8

1. Прочитайте наизусть стихотворение С.А.Есенина.
2. Какое время года вы любите? Расскажите о нём.

Билет № 9

1. Прочитайте и перескажите биографическую справку о Л.Н. Толстом.
2. Расскажите о Великом шёлковом пути. Что вы знаете о нём?

Билет № 10

1. Прочитайте наизусть стихотворение А.С.Пушкина «Осень».
2. Расскажите о том, что вы любите делать в свободное время.

Билет № 11

1. Прочитайте наизусть стихотворение Ф.И.Тютчева «Весенние воды».
2. Какие книги вы любите читать? Расскажите о своем любимом герое.

Билет № 12

1. Прочитайте наизусть стихотворение А.А. Фета «Я пришел к тебе с приветом».
2. Расскажите о своём друге (подруге). Какой у него (у неё) характер? Чем он (она) увлекается?

Билет № 13

1. Прочитайте наизусть стихотворение С.А.Есенина «Черемуха».
2. Расскажите об древних городах Узбекистана.

Билет № 14

1. Прочитайте и перескажите статью о жизни С.А.Есенина.
2. Расскажите, сколько и каких продуктов нужно взять для приготовления плова.

Билет № 15

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа А.И.Куприна «Слон».

2. Расскажите о спортивных достижениях ваших друзей.

Билет № 16

1. Прочитайте наизусть отрывок из поэмы А.С.Пушкина «Руслан и Людмила».
2. Что вы знаете о столице нашей родины – Ташкенте? Расскажите о нем.

Билет № 17

1. Прочитайте наизусть отрывок из стихотворения И.С. Никитина «Утро».
2. Какие животные есть у вас дома? Расскажите о ваших домашних питомцах.

Билет № 18

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа К.Г.Паустовского «Кот-ворюга».
2. Расскажите где и как вы будете проводить летние каникулы.

Билет № 19

1. Прочитайте и перескажите статью о жизни А.П.Чехова.
2. Расскажите о доме, в котором вы живёте.

Билет № 20

1. Прочитайте наизусть стихотворение Ф.И.Тютчева «Весенняя гроза».
2. Какую технику выпускают в Узбекистане? Расскажите о разных машинах.

Билет №21

1. Прочитайте и перескажите статью о жизни А.С.Пушкина.
2. Какой вид спорта вам нравится? Расскажите о нём.

Билет № 22

1. Прочитайте и перескажите отрывок из «Повести о настоящем человеке» Б.Н. Полевого (часть 1).
2. Расскажите о своём городе (кишлаке). Какие достопримечательности есть в нём?

Билет № 23

1. Прочитайте наизусть одно из любимых стихотворений.
2. Объясните смысл пословицы «В здоровом теле - здоровый дух».

Билет № 24

1. Прочитайте наизусть отрывок из стихотворения М.Ю. Лермонтова «Бородино».
2. Расскажите, как в нашей республике празднуют день Независимости.

Билет № 25

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа «Барсучий нос» К.Г. Паустовского.
2. Расскажите о правилах здорового питания. Полезны ли многие продукты, которые вы любите?

Билет № 26

1. Прочитайте и перескажите статью о жизни М.Ю.Лермонтова.
2. Расскажите об Олимпийских играх. Что вы знаете о них?

Билет № 27

1. Прочитайте наизусть стихотворение Ф.И.Тютчева «Весенняя гроза».
2. Расскажите о Великом шёлковом пути. Что вы знаете о нём?

Билет № 28

1. Прочитайте наизусть одно из любимых стихотворений.
1. Расскажите где и как вы будете проводить летние каникулы.

Билет № 29

1. Прочитайте и перескажите статью о жизни А.С.Пушкина.
2. Расскажите о том, что вы любите делать в свободное время.

Билет № 30

1. Прочитайте наизусть отрывок из стихотворения М.Ю. Лермонтова «Бородино».
2. Расскажите о вашей семье. Когда родились ваши родственники?

Билет № 31

1. Прочитайте наизусть отрывок из поэмы А.С.Пушкина «Руслан и Людмила».
2. Какое время года вы любите? Расскажите о нём.

Билет № 32

1. Прочитайте наизусть отрывок из поэмы Н.А.Некрасова «Мороз-Красный нос».
2. Какие книги вы любите читать? Расскажите о своем любимом герое.

Билет № 33

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа А.П.Чехова «Мальчики».
2. Расскажите о доме, в котором вы живёте.

Билет № 34

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа А.И.Куприна «Слон».
2. Расскажите об известных спортсменах Узбекистана.

Билет № 35

1. Прочитайте наизусть одно из любимых стихотворений.
2. Расскажите о погоде весной в Узбекистане.

Билет № 36

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа К.Г.Паустовского «Барсучий нос».
2. Расскажите, почему нужно закаляться.

Билет № 37

1. Прочитайте и перескажите отрывок из «Повести о настоящем человеке» Б.Н. Полевого (часть 1).
2. Расскажите, как в нашей республике празднуют день Независимости.

Билет № 38

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа «Приёмьш» Д.Н. Мамина-Сибиряка.
2. Расскажите о древнем Регистане в Самарканде.

Билет № 39

1. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа «Кот-ворюга» К.Г. Паустовского.
2. Расскажите о правилах обращения с книгами в библиотеке.

Билет № 40

1. Прочитайте наизусть одно из любимых стихотворений.
2. Расскажите о праздновании Нового года в разных странах мира.

Литература

7 класс

В 2018-2019 учебном году учащиеся 7-х классов школ общего среднего образования с русским языком обучения экзамен по родному языку сдают в письменной форме. Цель проведения диктанта с грамматическим заданием – проверка орфографической и пунктуационной грамотности учеников, уровня усвоения ими изученного теоретического материала и умения применять полученные знания на практике.

Объём диктанта для 7 класса – 110-120 слов (текст диктанта с грамматическим заданием может быть уменьшен). В диктанте должно быть не более 20 орфограмм, не более 4-5 пунктограмм, количество слов с непроверяемыми или трудно проверяемыми написаниями – не более 7.

Для диктантов используются тексты, отвечающие нормам современного

литературного языка, доступные по содержанию для данного возраста. Преимущество отдаётся текстам из произведений художественной и научно-популярной литературы.

Из приготовленных экзаменатором трёх запечатанных конвертов с текстами диктантов и заданиями к ним один из учеников в присутствии всех учащихся данного класса выбирает один, о чем составляется акт.

Название текста записывается на доске. Учитель читает текст диктанта, объясняет незнакомые слова или слова, написание которых не изучалось, записывая их на доске. После написания диктанта даётся грамматическое задание (разбор слова по составу, морфологический, разбор предложения).

За диктант и грамматическое задание выставляется общая итоговая средняя оценка.

Критерии оценивания диктанта

Критерии	Балл
За работу без ошибок, а также при наличии в ней 1 негрубой орфографической + 1 негрубой пунктуационной ошибки 1\1	«5»
2 орфографические + 2 пунктуационные; 1 орфографическая + 3 пунктуационные; 0 орфографических + 4 пунктуационные 2\2 1\3 0\4	«4»
4 орфографическая + 4 пунктуационные; 3 орфографические + 5 пунктуационных; 0 орфографических + 7 пунктуационных; 6 орфографических + 6 пунктуационных (если есть однотипные и негрубые орфографические и пунктуационные) 4\4 3\5 0\7 6\6	«3»
7 орфографических + 7 пунктуационных; 6 орфографических + 8 пунктуационных; 5 орфографических + 9 пунктуационных; 8 орфографических + 6 пунктуационных 7\7 6\8 5\9 8\6	«2»
при большем количестве ошибок	«1»

При проверке диктанта исправляются, но не учитываются орфографические и пунктуационные ошибки:

- а) в переносе слов;
- б) на правила, которые не включены в школьную программу;
- в) на еще не изученные правила;
- г) в словах с непроверяемыми написаниями, над которыми не проводилась специальная работа;
- д) в передаче авторской пунктуации.

Исправляются, но не учитываются опiski, неправильные написания, искажающие звуковой облик слова, например: «рапотает» (вместо работает), «дулпо» (вместо дуло), «мемля» (вместо земля).

При оценке диктантов важно также учитывать характер ошибки. Среди ошибок следует выделять негрубые, т. е. не имеющие существенного значения для характеристики грамотности. При подсчете ошибок две негрубые считаются за одну. К негрубым относятся ошибки:

- 1) в исключениях из правил;
- 2) в написании большой буквы в составных собственных наименованиях;
- 3) в случаях слитного и раздельного написания приставок в наречиях, образованных от существительных с предлогами, правописание которых не регулируется правилами;
- 4) в случаях раздельного и слитного написания не с прилагательными и причастиями, выступающими в роли сказуемого;
- 5) в написании *ы* и *и* после приставок;
- 6) в случаях трудного различения не и ни;
- 7) в собственных именах иностранного происхождения;
- 8) в случаях, когда вместо одного знака препинания поставлен другой;
- 9) в пропуске одного из сочетающихся знаков препинания или в нарушении их последовательности.

Необходимо учитывать также повторяемость и однотипность ошибок. Если ошибка повторяется в одном и том же слове или в корне однокоренных слов, то она считается за одну ошибку. Однотипными считаются ошибки на одно правило, если условия выбора правильного написания заключены в грамматических (в армии, в роще; колют, борются) и фонетических (пирожок, сверчок) особенностях данного слова. Не считаются однотипными ошибки на такое правило, в котором для выяснения правильного написания одного слова требуется подобрать другое (опорное) слово или его форму (вода - воды, рот - ротик, грустный - грустить, резкий - резок). Первые три однотипные ошибки считаются за одну, каждая следующая подобная ошибка учитывается как самостоятельная. Если в одном слове с непроверяемыми орфограммами допущены 2 ошибки и более, то все они считаются за одну ошибку.

Примерные тексты диктантов.

Путешествие в древний город.

Анды -самые высокие горы американского континента, рассекающие его с севера на юг. Они поражают изменчивыми пейзажами. Здесь увидишь непокоренные вершины, покрытые вечными снегами, дымящиеся вулканы. На западе сверкает бирюзой Тихий океан, на востоке восхищают бесконечные джунгли, изрезанные паутиной серебряных рек.

После однодневного пребывания в столице Перу вылетаем к пропавшему городу инков. Доезжаем поездом до небольшого городка и пешком через лес добираемся до деревеньки. Глиняные домики и соломенные шалаши напоминают о древней цивилизации. Стараемся не потерять тропинку, вьющуюся вверх.

Вдали появляется загадочный город, расположившийся на скалистой вершине. Через пять часов подъема проходим тяжелые ворота и входим в крепость, находящуюся на горе. На многочисленных террасах, соединенных бесчисленными лестницами, располагается каменный мир с улицами, площадями. Древний город зачаровывает нас. (116 слов)

(По Я. Палкевичу)

Задания

1. Фонетический разбор слова: *подъём*.
2. Разбор слов по составу: *находящуюся*.
3. Морфологический разбор слова: *располагается*.
4. Синтаксический разбор предложения: *Глиняные домики и соломенные шалаши напоминают о древней цивилизации*.

Утро

Солнце запуталось в серовато-жёлтых тучах за серебряной рекой. Над водой сонно клубится прозрачный туман. Осенний лес окурен едким дымом. Тихий город спит, приютясь в полукольце леса. Утро, а грустно. День ничего не обещает, и лицо у него печальное и какое-то незрячее.

Я лежу на куче примятой соломы в сторожке сада. Мне виден весь город, который не с чем сравнить. Весь город принимает приятные и ласковые очертания.

Роса смыла с деревьев ночную тьму, изасверкала пахучая антоновка. Из-за облаков показалось солнце. Лицо у него было печальное, как нездорового ребёнка. Солнце чувствовало себя виновато, потому что залежалось на мягких тучах и опоздало осветить землю. Сад облился тёплыми лучами и вздохнул ароматом созревших плодов. (114 слов)

(по М. Горькому)

Задания

1. Фонетический разбор слова: *приютясь*.
2. Разбор слов по составу: *залежалось*.
3. Морфологический разбор слова: *клубится*.
4. Синтаксический разбор предложения: *Весь город принимает приятные и ласковые очертания*.

Зимой и летом

Это был обычный лес. Мимо него по блестящему асфальту навстречу друг другу шли машины, спешили люди.

Деревья и подлесок были в виде зелёной стены. В глубине леса сумрак сгущался до черноты.

Сколько раз в течение последних месяцев приходилось мне проезжать мимо этого леса! Быстро мчится машина вдоль зелёной стены. Глазу не проникнуть дальше первого ряда деревьев. Они раскинули ветви, плотно сошлись кронами, из-за них не заглянуть в глубь леса.

Лес вроде зелёной преграды.

И снова я в пути, но уже в январе.
По привычкеповорачиваю голову влево, чтобы увидеть знакомый лес.
Весь белый, кружевнойот инея, он виден со стороны дороги насквозь.
Белые веточки тонко вырисовываются каждым своим изгибом, касаются одна другой, переплетаются.

Безотрывно гляжу на белый зимний лес. (119 слов)

(По М. Усову)

Задания

1. Фонетический разбор слова: *насквозь*.
2. Разбор слов по составу: *вырисовываются*.
3. Морфологический разбор слова: *безотрывно*.
4. Синтаксический разбор предложения: *В глубине леса сумрак сгущался до черноты*.

FIZIKA

7-sinf

Mazkur metodik tavsiyada bosqichli nazorat imtihonini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Shuningdek, nazariy savollar, amaliy va laboratoriya ishlari bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan. Har bir imtihon bileti umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 6,7-sinflari fizika kurslarining barcha bo'limlarning mavzularini qamrab olgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 2018-2019 o'quv yilining 7-sinfini tugatgan o'quvchilarning fizika fanidan egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakava kompetensiyalarini aniqlash maqsadida bosqichli nazorat bilet savollari shaklida og'zaki usulda o'tkaziladi.

Bosqichli nazorat savollari fizika fanidan 6,7-sinflar bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan DTS va o'quv dasturlari asosida tuzilgan.

Har bir biletida 2 tadan topshiriq berilgan bo'lib, 1 ta nazariy 1 ta masala yoki laboratoriya ishi beriladi. Birinchi nazariy savol 6,7-sinfdaolgan bilim, ko'nikmalarini, 2-topshiriq esa 6,7- sinflarda egallagan malakalari va kompetensiyalarni shakllanganligini aniqlaydi.

O'quvchiga tanlagan imtihon savollariga tayyorlanishi uchun 20 minut vaqt beriladi.

Bosqichli nazoratning har bir savoli o'quvchi uchun «5» ballik reyting asosida baholanadi.

Fizika fanining bosqichli nazorat imtihonidan olingan ijobiy natija o'quvchining 8-sinfga o'tishi uchun asos bo'ladi.

Nazariy savollarni baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini to'la ochib bersa, ularni hisoblash formulalarini, o'lchov birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa;	5 ball
2	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarni fizik ma'nosini to'la ochib, lekin asosiy	4 ball

	tushunchalar va fizik kattaliklarni keltirib chiqarishda ju'ziy xatoliklarga yo'l qo'ysa;	
3	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarni fizik ma'nosini ochib berishda va formulalarni, o'lchov birliklarini keltirib chiqarishda xatoliklarga yo'l qo'ysa;	3 ball
4	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini ochib bera olmasa, lekin formulani to'g'ri keltirgan bo'lsa;	2 ball
5	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarni ochib bera olmasa, mavzu bo'yicha ba'zi formulalarni yozib ko'rsata olsa.	1 ball

Masala yechish bo'yicha baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	O'quvchi masalani yechishda fizik hodisa va qonuniyatlarning ma'nosini to'la ochib bersa, qonunlarni qo'llab masalani to'g'ri yechsa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizmalar to'g'ri chizilgan bo'lsa, fizik kattaliklar va ularning o'lchov birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa;	5 ball
2	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini to'la ochib bersa, asosiy tushunchalar, qonunlarni qo'llab masalani to'g'ri yechsa, fizik kattaliklarning o'lchov birliklarini to'g'ri keltirib chiqargan bo'lsa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizmani chizishda yoki hisoblashda ju'ziy kamchilikka yo'l qo'ysa;	4 ball
3	O'quvchi hodisa va qonuniyatlarning fizik ma'nosini ochib bera olmasa, lekin masalani to'g'ri yechsa, masala uchun chizma shart bo'lib, chizma noto'g'ri chizilgan, fizik kattaliklarni belgilashda xatoliklarga yo'l qo'ysa;	3 ball
4	O'quvchi masalani yechish uchun formulani yozgan, masalani yechishga harakat qilgan;	2 ball
5	O'quvchi masala shartida berilgan fizik kattaliklarni yozgan, masalani umuman yechmagan bo'lsa.	1 ball

Laboratoriya ishini baholash mezonlari

№	Baholash mezonlari	Ball
1	Tajriba va o'lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik texnikasiga rioya qilib bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, tajriba natijalarining absolyut, nisbiy xatoliklarini to'g'ri hisoblay olsa va jadval asosida xulosani to'g'ri chiqargan bo'lsa;	5 ball
2	Tajriba va o'lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda xavfsizlik qoidalariga rioya qilib bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, tajriba natijalarining absolyut, nisbiy xatoliklarini to'g'ri hisoblay olsa, lekin xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilmasa;	4 ball
3	Tajriba va o'lchash ishlari tegishli ketma-ketlikda bajarilsa, kerakli jihozlardan mustaqil foydalana olsa, lekin tajriba natijalari noto'g'ri bo'lsa va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilmasa;	3 ball
